

INNOVATION YONDASHUVLAR ORQALI KIMYO O'QITUVCHILARI METODIK KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA IJODIY G'OYALARNING ROLI

*Sarimova Dildora Soataliyevna, Toshkent viloyati pedagogik mahorat
markazi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish bo'yicha direktori
o'rinbosari, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

THE ROLE OF CREATIVE IDEAS IN IMPROVING THE METHODOLOGICAL COMPETENCE OF CHEMISTRY TEACHERS THROUGH INNOVATIVE APPROACHES

*Sarimova Dildora Soataliyevna, Deputy Director for Professional
Development of Teachers of the Tashkent Regional Pedagogical Skills
Center, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate
Professor*

РОЛЬ КРЕАТИВНЫХ ИДЕЙ В ПОВЫШЕНИИ МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ ХИМИИ ПОСРЕДСТВОМ ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ

*Саримова Дилдора Соаталиевна, заместитель директора
по повышению квалификации педагогов Ташкентского
областного центра педагогического мастерства, доктор
философии по педагогическим наукам, доцент*



<https://orcid.org/0009-0005-6549-8983>

e-mail:
sarimova_dildora2025@mail.ru



Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagoglarning kasbiy faoliyatiga bo'lgan munosabatlarini o'rganishda motivatsion, metodik yangilanish va refleksiv mezonlarning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda o'qituvchilarning malaka oshirishga bo'lgan ehtiyoji va motivatsiyasi, bilimlarni tizimli ravishda yangilashga intilishi, pedagogik hamda metodik resurslardan samarali foydalanish qobiliyati tahlil etiladi. Shuningdek, o'qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirishda ijodiy g'oyalarning o'rni va ahamiyati ochib beriladi. Pedagogda ijodiy g'oyalarning shakllanishi, ta'lim jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilgan yangiliklarni yaratish va amaliyotda qo'llash ko'nikmalari tadqiqotning asosiy tahlil obyekti sifatida o'rganiladi. Ijodiy yondashuv o'qituvchining yangilikni anglash, uni amaliyotda qo'llash va tahlil qilish qobiliyatini ifodalovchi muhim omil sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: pedagog faoliyati, metodik kompetentlik, malaka oshirish, motivatsiya, refleksiya, ijodiy g'oya, yangilik, metodik yangilanish.

Abstract: This article explores the significance of motivational, methodological, and reflective criteria in examining teachers' attitudes in their professional development. The study analyzes teachers' need and motivation for professional development, their strategic motivation to systematically update their knowledge, and their ability to effectively utilize pedagogical and methodological resources. Particular attention is given to the role of creative ideas in improving teachers' methodological competence. The processes of forming creative

ideas aimed at enhancing the educational process, introducing innovations, and applying them in practice are examined. A creative approach is considered a key factor reflecting a teacher's ability to identify new approaches, implement them in practice, and critically evaluate their pedagogical practice.

Keywords: *teaching activity, methodological competence, professional development, motivation, reflection, creative idea, innovation, methodological updating.*

Аннотация: *В данной статье раскрывается значение мотивационных, методических и рефлексивных критериев в изучении отношения педагогов к своей профессиональной деятельности. В исследовании анализируются потребность и мотивация учителей к повышению квалификации, их стремление систематически обновлять знания, умение эффективно использовать педагогические и методические ресурсы. Особое внимание уделено роли творческих идей в совершенствовании методической компетентности педагогов. Рассматриваются процессы формирования у педагогов творческих идей, направленных на совершенствование учебного процесса, внедрение инноваций и применение их на практике. Творческий подход оценивается как важный фактор, отражающий способность педагога воспринимать новизну, применять её в практике и осуществлять аналитическую оценку собственной деятельности.*

Ключевые слова: *педагогическая деятельность, методическая компетентность, повышение квалификации, мотивация, рефлексия, творческая идея, инновация, методическое обновление.*

KIRISH. Kimyo fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirish o'quvchilarning savodxonligini baholashning xalqaro tizimi talablarga mos ta'lim oluvchilarning mantiqiy fikrlashi, har tomonlama rivojlanishini ta'minlash maqsadida ijodiy yondashuvga ustuvorlik berilayotganligi, ya'ni o'quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirish, mantiqiy ketma-ketligi va izchilligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-231-son qarorida malaka oshirish kurslari oralig'ida xodimlarning o'zaro tajriba almashish va o'zini o'zi mustaqil rivojlantirishga asoslangan uzluksiz kasbiy rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan[1].

ASOSIY QISM. Kimyo o'qituvchilarida kasbiy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari va pedagogik ijodkorlikni rag'batlantirish masalalari P.A.Orjekovskiy[2] va N.A.Titov[3] tomonidan tadqiq etilgan. Mualliflar o'quvchilarga faqat nazariy ma'lumot berishdan tashqari, eksperimental va ijodiy faoliyatni tashkil etish orqali ularning fan tushunchalarini mustahkamroq va integrativroq shakllantirish mumkinligini izohlashgan. Ijodiy vazifalar bilan ishlash o'quvchilarning faolligini oshirishi, darsga bo'lgan motivatsiyasini yaxshilashi

va ularni mustaqil fikrlash faoliyatiga jalb qilishiga e'tibor qaratilgan.

Tadqiqotimizda pedagogning kasbiy faoliyatiga munosabatida ma'lum mezonlar, jumladan, motivatsion, metodik yangilanish, refleksiya o'rganish taklif etiladi. Ushbu mezonlar asosida pedagog malaka oshirishga ehtiyojni his etishi lozim. Tizimli ravishda bilimlarni yangilash va takomillashtirishga bo'lgan strategik motivatsiyasi, pedagogik va metodik resurslarni izlash, amalda qo'llash qobiliyati hamda amaliyot orqali zamonaviy yondashuvlarni o'zlashtirishni ta'minlashga intilishi baholanishi kerak. Bunda malaka oshirishga tayyorgarlikning motivatsion, ya'ni qaror qabul qilish va yangiliklarga ochiq bo'lishi nazarda turiladi. O'qituvchining yangi metodlarni o'rganish va qo'llashga ishtiyoqi va o'z faoliyatini baholay olishi, yangi bilimlarni amalda qo'llashda o'ziga ishonch hamda professional rivojlanishi monitoring qilinishi lozim. Masalan, pedagog malaka oshirish kurslariga munosabati o'rganilishi lozim. O'qituvchi malaka oshirish kurslariga faqat majburiy qatnashishi, initsiativasi kam bo'lishi hisobiga qisqa vaqt davomida biroz o'z ustida ishlashi, yoki aksincha yangi kurslarda mustaqil ravishda izlanishga kirishishi tahlil qilib borilishi lozim. Malaka oshirish kursi davomida yangi metodlar, dars jarayonlarini tashkil etishda zamonaviy yondashuvlar tatbiq etiladi. Pedagog malaka oshirish kursidan so'ng pedagog o'zining

maktabida faoliyatni boshlaganida quyidagicha faoliyat yuritadi:

Yangi metodlarni qo'llamaydi;

Sinov tariqasida ba'zi metodlarni qo'llab ko'radi;

Doimiy ravishda darslarida yangi metodlarni uyg'unlashtiradi;

Pedagogning zamonaviy ta'lim talablari asosida o'z kasbiy faoliyatiga munosabati ichki motivatsiyasi, intellektual hamda metodik tayyorgarligi shaxsiy sifat shaklida rivojlantirilishi lozim.

Malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirishda ijodiy g'oyalar muhim o'rin tutadi. Pedagogda ijodiy g'oya pedagogik muammoni yangicha yondashuv asosida hal eta olishi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yoki samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan yangilik

yaratish faoliyatini ifodalaydi[4]. Ijodiy yondashuv o'qituvchining yangilikni anglay olishi, uni amaliyotda qo'llashi va tahlil etish qobiliyatini ifodalaydi. Shuningdek, ijodiy g'oyalarni baholashda ularning mazmungan chuqurligi, amaliy ahamiyati hamda yangilik darajasini tahlil qilish zarur. Tadqiqot jarayonida ijodiy g'oyalar ilmiy manbalar va tajriba natijalariga tayanilgan holda: pragmatic, inkremental, yuzaki, past samarador, novator g'oya kabi shakllarga ajratilib o'rganildi.

№	Ijodiy g'oya turi	Asosiy mazmuni	Yangilik darajasi	Amaliy qiymati	Misol
1.	Pragmatik	Amaliyotda samarali qo'llasa bo'ladi.	Yuqori	Bor	Raqamli simulyatsiyalar
2.	Inkremental	Chuqurlashmagan	Past	Cheklangan	
3.	Yuzaki	Hech qanday natija bermaydi	Juda past	Yo'q	Plakatlar
4.	Past samarador	Mavjud tajribaga o'xshash	O'rta	Bor	Virtual laboratoriyalar
5.	Novator g'oya	Butunlay yangi	Eng yuqori	Katta	Sun'iy intellektli eksperimentlar

Mazkur tasnif ijodiy fikrlashning rivojlanish darajasini aniqlash, o'qituvchilarning metodik tayyorgarlik jarayonida yuzaga keladigan innovatsion yondashuvlarni tizimlashtirish imkonini beradi. Ijodiy g'oyalarni mazmuniy va amaliy jihatdan baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda ularning metodik kompetentlikni takomillashtirishdagi rolini aniqlash o'qituvchining kasbiy o'sishga nisbatan ijobiy munosabati, o'z faoliyatini innovatsion yondashuvlar asosida tahlil qila olish qobiliyati hamda ta'lim jarayonida ilg'or tajribalarni samarali joriy eta olish layoqatini ifodalaydi[2].

Pragmatik g'oya – bu o'qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi va o'qitish sifatini oshiruvchi, amaliy natijaga ega. Masalan, kimyo fanida “Kislorod va uning olinishi” mavzusini o'qitishda malaka oshirish

kursida **virtual laboratoriya** va **molekulyar modellash** dasturi (ChemCollective, PhET) asosida interaktiv mashg'ulot yaratish taklifi berilsa, o'quvchilar tajribani virtual tarzda o'tkazib, reaksiya jarayonidagi modda massasining saqlanish qonunini mustaqil aniqlaydi. O'qituvchi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini darsga integratsiyalab, tajriba xavfsizligini ta'minlaydi va o'quvchilarda ilmiy tahlil ko'nikmasini shakllantirishni o'rganadi.

Inkremental g'oya – mavjud dars shaklini tubdan o'zgartirmaydi, balki uni raqamli tahlil elementlari bilan boyitadi. O'quvchilar tajriba natijasini endi nafaqat kuzatadilar, balki grafik chizish, o'lchovlarni solishtirish, xulosa chiqarish orqali chuqur tahlilni amalga oshiradi. An'anaviy darslarda kimyo o'qituvchilari tajriba o'tkazishda ishlatilgan

eritmalar va reaktivlarni to'g'ridan-to'g'ri kanalizatsiyaga tashlashardi. Malaka oshirish jarayonida o'qituvchi inkremental g'oya sifatida laboratoriya mashg'ulotlarini takomillashtiradi – u xavfsiz chiqindi yig'ish tizimini joriy etadi: ishlatilgan reaktivlar alohida idishlarga yig'iladi, neytrallashtirish uchun soda eritmasi yoki natriy tiosulfatdan foydalaniladi, keyin chiqindilar ekologik tarzda yo'q qilinadi. Bunda mavjud dars tizimini saqlagan holda uni mazmunan boyitish, barqaror rivojlanish va amaliy samaradorlikni ta'minlash ko'zda tutiladi. U yuzaki emas, balki mavjud tajribaning sifatli o'sish bosqichini aks ettiradi.

Yuzaki g'oya – tashqi tomondan innovatsion ko'ringan, ammo o'qituvchining bilim chuqurligi yoki tahlil salohiyatini oshirmaydigan, soddalashtirilgan yondashuv. “Kimyoviy elementlar davriy jadvali” mavzusini o'rgatishda faqatgina rangli jadval tayyorlab, uni devorga iladi va bu orqali o'quvchilar diqqatini jalb qilishni maqsad qilinsa, u o'qituvchilarning jadval tuzilishini tahlil qilish yoki elementlarning o'zaro bog'liqligini tushunishga imkon bermaydi. Bunda vizual vositalardan foydalanishni o'rganadi, ammo ularni didaktik maqsadga yo'naltirish qobiliyatini to'liq egallamaydi.

Past samarador g'oya – o'quvchilarning bilimini chuqurlashtirmaydi, o'quv jarayonida metodik yangilik keltirmaydi yoki eskirgan yondashuvni takrorlaydi. “Kislotalarning xossalari” mavzusida tajriba o'tkazish o'rniga o'quvchilarga faqat tayyor rasmiy plakat ko'rsatadi. Bu ta'lim oluvchida kimyoviy reaksiyalarni bevosita kuzatish, tahlil qilish yoki xulosa chiqarish imkonini bermaydi. Bunday g'oya o'qituvchining tajriba yetishmasligini yoki metodik xavfsizlikdan ortiqcha ehtiyohtkorligini ko'rsatadi.

Novator g'oya – ilgari qo'llanmagan, o'quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga jalb etuvchi, fanlararo integratsiyaga asoslangan va yuqori innovatsion qiymatga ega yondashuv. Masalan, o'qituvchi “Atrof-muhitdagi kislorod aylanishi”

mavzusida STEAM loyihaviy faoliyatni tashkil etadi: tinglovchilar biologiya, fizika va kimyo fanlari integratsiyasida “Toza havo generatori” modelini ishlab chiqadilar. Loyihada fotosintez jarayonining kimyoviy asoslari, gazlarning bosim ostida ajralishi va katalizatorlar roli tahlil qilinadi. O'qituvchi interdisiplinar yondashuvni qo'llash, ilmiy loyihalarni boshqarish va natijalarni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalarini shakllantiradi.

XULOSA. Kimyo o'qituvchisi o'z malakasini oshirish zarurligini tushunishi, malaka oshirishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishi, pedagogik tajribasini qayta ko'rib chiqishi va kengaytirishi, yangi tajribani qo'llashi, o'zini o'zi rivojlantirish yo'nalishini aniqlashi lozim. Malaka oshirish kursining samaradorligi tinglovchi o'z ishida foydalanishga tayyor bo'lgan taklif etilayotgan ijodiy g'oyalarining mazmuniga qarab baholanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” PQ-231-son qarori.
2. Оржековский П.А. Формирование у учащихся опыта творческой деятельности при обучении химии: Монография. – М.: ИОСО РАО. 2017.
3. Титов Н.А. Экспериментальные творческие задачи по неорганической химии: Книга для учащихся. – М.: Аркти. 2018.
4. Шумилин, А.С. Развитие педагогического мастерства учителя химии в условиях сотворчества на курсах повышения квалификации / Липецк, 30–31 октября 2019 года / редакторы Л.А.Черных, И.В.Аксёнова, Н.М.Кузнецова, О.В.Гоголашвили. – Липецк: Государственное автономное учреждение дополнительного профессионального образования Липецкой области. Институт развития образования, 2019.

